

ZAMONAVIY TA'LIMDA SIFAT KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH:
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING OPTIMAL SONINI BELGILASH
BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOT ISHLARI NATIJALARI.

Badalova Maqsuda Umarovna

A.Avloniy nomidagi MTI BTMMO' mudiri

Sharipov O'tkir Xikmatullayevich

A.Avloniy nomidagi MTI katta ilmiy xodimi

Xalilov To'lqin Zafar o'g'li

A.Avloniy nomidagi MTI katta ilmiy xodimi

Rivojlangan davlatlarining ta'lif tizimlarini o'rganar ekanmiz, ushbu ta'lif tizimlarining bugungi kundagi muvaffaqiyatlarining sabablariga duch kelamiz. Ba'zi ta'lif sohasidagi tadqiqotchilar ta'lif tizimidagi muvaffaqiyatlarning asosiy sabablaridan biri sifatida sinfdagi o'quvchilarning sonining kam bo'lishini keltirib o'tishsa, ba'zi olimlar esa bu fikrga qo'shilmaydilar.

Masalan, A. Shlyaxerning fikricha, sinf qarovini kamaytirish ta'lif natijalari yaxshilanishining asosiy sababi ekanligini tasdiqlaydigan hech qanday xalqaro ma'lumotlar yo'q. Bundan tashqari, sinfda o'quvchilar sonini kamaytirish boshqa narsaga, masalan, eng yaxshi o'qituvchilarning ish haqini oshirishga sarflash lozim bo'lgan mablag'larning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Odatta, PISA tadqiqotining sinf qamrovini emas, oq'ituvchilar sifatini Afzal ko'radigan ishtirokchi-mamlakatlarda ta'lif tizimi amalda hammadan ko'ra samaraliroq bo'lib, har gal o'quvchi soni kam sinflar bilan o'qituvchilarga pul sarflashdan birini tanlashga to'g'ri kelganda, ular keyingisini afzal ko'rishadi.

Ehtimol, sinfda o'quvchilar sonini kamaytirish yangi va samaraliroq dars berish uslubi uchun imkoniyat yaratar va boshqa teng sharoitlarda sinflarda bola sonining kamligi yaxshi natija berar, ammo ko'p hollarda bu vaziyatga noto'g'ri qarashdir, chunki mamlakatlar pulni faqat bir marta sarflashi mumkin. Sinfda o'quvchilar sonini kamaytirish o'qituvchilarning ish haqini olishga, ularga faqat dars berish bilan shug'ullanish yoki o'quv soatlarini oshirish imkonini berishga kam mablag' qolishini anglatadi³⁵.

Sinfda o'quvchilar soni kam bo'lishining afzalligini tasdiqlovchi dalil-isbotlar yo'qligiga qaramay, ko'p davlatlar uni o'zлari uchun ustuvor deb hisoblashda davom etmoqda. O'quvchilar, ota-onalar va ta'lif siyosatini belgilovchi shaxslar kam qamrovli sinflar tarafdarlaridir, chunki ular bunday sinflarni samaraliroq va individullashgan ta'lif vositasi, deb hisoblaydilar. 2004-2014-yillar oralig'ida keng jamoatchilik tomonidan o'tkazilgan bosim va demografik o'zgarishlar hukumatlarni Iqtisodiy

³⁵ A. Shlyaxer. Jahon miqyosidagi ta'lif. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? – T., : "Zamin Nashr", 2022.-58-bet

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-16 (30-March)


hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda boshlang'ich sinflardagi o'quvchilar sonini o'rtacha 6 foizga qisqartirishga majbur qildi.

Ammo qariyb shu davr ichida o'rta hisobda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oylik ish haqi real ifodalanganda bor-yo'g'I 6 foizga oshdi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarning uchdan bir qismida esa oylik ish haqi amalda pasayib ketdi.

Hozir boshlang'ich sinf o'qituvchilariga to'liq ish kuni bilan band boshqa oliv ma'lumotli mutaxassislar oladigan maoshning faqat 88 foizi to'lanmoqda. Agar o'qituvchilarning oylik ish haqi raqobatbardosh bo'la olmasa, ular vaqtłari va mablag'larni mustaqil bilim olishga sarflamaydi yoki, aniqrog'i, o'z kasbini tashlab, ularning tajribasidan yaxshiroq foydalanadigan, tan oladigan va ko'proq haq to'laydigan joyga ketadi.

So'nggi yillarda G'arb davlatlarida maktablarda sinf qamrovini kamaytirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlar ko'pincha muvaffaqiyatli amalga oshmoqda. Buning sabablaridan biri sifatida G'arb davlatlaridagi demografik ko'rsatkichlarning yildan yilga pasayotganligi ko'rsatiladi.

Quyida ba'zi davlatlarda boshlang'ich va o'rta maktablardagi o'quvchilar soni keltirib o'tilgan diagrammani ko'rib o'tamiz.



Manba: <https://www.compareyourcountry.org/education-at-a-glance-2021/en/6/all/default>

Yuqoridagi ko'rsatkichlarda ko'rinish turibdiki, aholi soni nisbatan ko'p bo'lgan Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda boshlang'ich va o'rta maktablarda sinfda qamrab olinga o'quvchilar soni G'arb davlatlaridagi ko'rsatkichlardan yuqoridir.


Mamlakatimizda mavjud maktablardagi boshlang'ich sinflarda o'quvchilar soni darsning samarati tashkil etilishida murakkabliklarni vujudga keltirmoqda. Respublikadagi mavjud holatni aniqlash hamda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning

optimal sonini belgilash maqsadida boshlang'ich sinflarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar o'rtaida so'rovnama o'tkazildi. mazkur so'rovnomada jami 2705 nafar respondentlar ishtirok etishdi.

Yuqoridagi so'rovnama natijalari tahliliga ko'ra, respondentlarning 33.9%i o'z sinflarida 30 nafardan ko'p o'quvchi tahsil olayotganligini ma'lum qilishgan.

1. Siz faoliyat yuritayotgan maktabda boshlang'ich sinflarda o'quvchilar soni necha nafarni tashkil etadi? (har bir sınıf doirasida)


2 705 ОТВЕТОВ



Shuningdek, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning qariyb 73%i sinfda o'quvchilar sonining ko'p bo'lishi dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblashadi.

2. Boshlang'ich sinflarda bir sinfda o'quvchilarning belgilangan me'yordan ko'pligi dars samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?


2 705 ОТВЕТОВ



Shuningdek, so'rovnomada ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 89%i sinfda o'quvchilar sonini kamaytirish o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishlari va darsni samarali tashkil etishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblashadi.

3. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonini kamaytirish bolalarning fanlarni o'zlashtirishi hamda dars samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaysizmi?

2.705 ответов



So'rovnoma madagi "Boshlang'ich sinflarda ko'zlangan dars samaradorligiga erishish hamda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish uchun bir sinfda nechta o'quvchi bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?" mazmunidagi so'rovga respondentlarning 50%dan oshig'i 20-22 nafar javobini berishgan.

O'r ganilgan xalqaro tajribalar hamda Respublika miqyosida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra shunday xulosaga kelish mumkinki, sinfdagi o'quvchilar qamrovini kamaytirish ta'lif jarayonida quyidagi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin:

- Har bir o'quvchiga e'tibor qaratiladi;
- O'qituvchilarning sinfni boshqarishi hamda darsni tashkil etishi osonlashadi;
- Olingan bilimlarni amaliyatda qo'llash osonlashadi;
- Sinf mashg'ulotlarida har bir o'quvchining qatnashish imkoniyati oshadi;
- O'qituvchilar o'tgan mavzuni baholash hamda yangi mavzu yuzasidan tushuntirishlar berish uchun ko'proq vaqtga ega bo'lishadi;
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida individual mashg'ulotlar olib borishga imkoniyatlar paydo bo'ladi;
- O'quvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish uchun qulay muhit vujudga keladi;
- Sinfda ta'lif uchun qulay va nisbatan tinch muhit shakllanadi.